



O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI VALYUTALARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK ISTIQBOLLARI: GLOBAL TRENDLAR VA MILLIY IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYASI

Rustamova Malika Rustamovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro iqtisodiyot va menejment kafedrasida

o'qituvchisi E-mail: m.rustamova@uwed.uz

Allanazarova Umida Boboravshan qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 1-kurs E-

mail: umidaallanazarova07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot global raqamli transformatsiyaning O'zbekiston moliya-bank tizimiga ta'sirini fundamental tahlil qiladi. Maqolada CBDC va kripto-aktivlarning monetar barqarorlik hamda tranzaksion samaradorlikdagi o'rni tadqiq etilgan. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida "Raqamli so'm"ning konseptual modeli ishlab chiqilib, uning yashirin iqtisodiyotni jilovlashdagi strategik ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, MB va Xalqaro moliya institutlari ma'lumotlari asosida kiberxavfsizlik risklarini boshqarish bo'yicha ilmiy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar : Raqamli valyuta, CBDC, Blokcheyn, Raqamli so'm, Monetar transmissiya, Fintex, Kiberxavfsizlik, Moliyaviy inklyuzivlik, O'zbekiston.

Abstract. This research examines the impact of global digital transformation on Uzbekistan's financial-banking architecture. It evaluates the role of Central Bank Digital Currencies (CBDCs) and crypto-assets in enhancing monetary stability and transactional efficiency. Within the "Digital Uzbekistan - 2030" framework, the study conceptualizes the "Digital Soum" and substantiates its capacity to mitigate the shadow economy. Leveraging data from the CBU, IMF, and World Bank, the paper proposes strategic frameworks for managing institutional shifts and cybersecurity risks.

Keywords: Digital currency, CBDC, Blockchain, Digital soum, Monetary transmission, Fintech, Cybersecurity, Financial inclusion, Uzbekistan.

Аннотация: В исследовании анализируется влияние глобальной цифровизации на финансово-банковскую архитектуру Узбекистана. Оценивается роль CBDC и криптоактивов в обеспечении монетарной стабильности и эффективности транзакций. В контексте стратегии «Цифровой Узбекистан - 2030» обоснована концептуальная модель «Цифрового сума» как инструмента минимизации теневого сектора. На основе данных ЦБ РУз, МВФ и Всемирного банка сформулированы предложения по управлению институциональными изменениями и рисками кибербезопасности.

Ключевые слова: Цифровая валюта, CBDC, Блокчейн, Цифровой сум, Монетарная трансмиссия, Финтех, Кибербезопасность, Финансовая инклюзивность, Узбекистан.

KIRISH




Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida pul shakllari doimiy ravishda evolyutsiya qilib kelgan. Tovar pullardan metall tangalarga, oltin standartdan fiduatsiar pullarga qadar bosib o'tilgan yo'l bugun o'zining navbatdagi - raqamli bosqichiga kirdi. "To'rtinchi sanoat inqilobi" (Industry 4.0) sharoitida pul nafaqat qiymat o'lchovi, balki yuqori texnologik algoritmlar mahsuliga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, ayniqsa bank-moliya sektori uchun yangi ufqlar ochib berdi. So'nggi yillarda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi (35,1–38,9 mlrd dollar) o'sib borishi, Turkiy davlatlar (Qozog'iston 6,5%, Turkiya 4,4% ulush) bilan iqtisodiy aloqalarning kengayishi transchegaraviy to'lovlar tizimini tubdan isloh qilishni taqazo etadi. Raqamli valyutalar, xususan Markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC), milliy moliya tizimining shaffofligini oshirish, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish va global moliya bozoriga integratsiyalashishning strategik drayveri hisoblanadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, an'anaviy pul-kredit siyosati vositalari raqamli ekotizim sharoitida o'z samaradorligini o'zgartirishi mumkin. Shuning uchun, milliy valyutaning raqamli shaklini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun hayotiy ahamiyatga ega.

Raqamli valyutalar nazariyasi so'nggi o'n yillikda iqtisodiy tadqiqotlarning markazida bo'lib kelmoqda. Satoshi Nakamoto (2008) tomonidan blokcheyn texnologiyasining taklif etilishi markazlashmagan moliya tizimiga asos soldi [4]. Biroq, davlat suverenitetini saqlab qolgan holda raqamli pullarni joriy etish masalasi Markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC) tushunchasini keltirib chiqardi. O'zbekiston iqtisodiyotida bank tizimini transformatsiya qilish masalalari X. Abdullayev (2022) ishlarida chuqur o'rganilgan. U o'zining "Markaziy Osiyo iqtisodiy aloqalari" asarida mintaqaviy integratsiya jarayonlarida to'lov tizimlarining unifikatsiyasi savdo hajmini oshirishining muhim omili ekanligini qayd etgan[1]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tahliliy hisobotlari va 2024–2028 yillarga mo'ljallangan strategik hujjatlarida raqamli moliya infratuzilmasini rivojlantirishning institutsional asoslari bayon etilgan[9]. B.Eichengreen (2021) va J.Tobin kabi iqtisodchilar raqamli valyutalarning monetar transmissiya mexanizmiga ta'sirini tahlil qilishgan. Ular raqamli valyutalarni joriy etish an'anaviy bank tizimidagi "disintermediatsiya" (vositachilikning yo'qolishi) xavfini keltirib chiqarishi mumkinligini isbotlagan [2]. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) hisobotlarida (2023) qayd etilishicha, rivojlanayotgan davlatlar uchun CBDC moliyaviy inklyuzivlikni yaxshilashning eng samarali yo'lidir[6].

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy yondashuv hamda iqtisodiy-statistik modellashtirish metodlari majmuasidan foydalanildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasining moliya-bank tizimi va unda raqamli texnologiyalarni qo'llashning transformatsion jarayonlari tanlab olindi. Tadqiqotning birinchi bosqichida institutsional tahlil metodi qo'llanildi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonuni kabi fundamental me'yoriy-huquqiy hujjatlar tadqiq etildi[7]. Mazkur tahlil



mamlakatda raqamli valyutalarni joriy etish uchun yaratilgan huquqiy tizim va tartibga solish mexanizmlarini baholash imkonini berdi. Ikkinchi bosqichda statistik va ekonometrik tahlil usullari orqali real ma'lumotlar o'rganildi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2018–2024-yillar oralig'idagi pul-kredit ko'rsatkichlari, xususan, muomaladagi naqd pul massasi (M_0 aggregate), bank kartalari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi va to'lov terminallari infratuzilmasining o'sish dinamikasi tahlil qilindi[9]. Uchinchi bosqichda qiyosiy-komparativ metod asosida global tajriba o'rganildi. Bunda Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) va Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS) tomonidan chop etilgan "Central Bank Digital Currencies (CBDC) for Emerging Economies" hisobotlari asos qilib olindi[6]. Xitoy Xalq bankining "e-CNY" loyihasi va Yevropa Ittifoqining "Digital Euro" konsepsiyalari O'zbekistonning makroiqtisodiy sharoitlariga (masalan, aholi demografiyasi va internet qamrovi) adaptatsiya qilingan holda qiyoslandi. Tadqiqotning axborot bazasini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari, Jahon bankining O'zbekiston iqtisodiyotiga oid yillik tahliliy hisobotlari (Economic Monitor 2024) hamda mahalliy iqtisodchi olimlar, xususan, X. Abdullayevning mintaqaviy iqtisodiy integratsiya borasidagi ilmiy ishlari materiallaridan keng foydalanildi. Ushbu metodlar majmuasi tadqiqot natijalarining xolisligi, ishonchligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.



1-rasm. O'zbekiston raqamli to'lovlar dinamikasi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzuldi

O'zbekiston moliya tizimining raqamli transformatsiyasi so'nggi besh yillikda misli ko'rilmagan dinamikani namoyon etdi. 2019-yilda mamlakatimizda naqd pulsiz to'lovlar infratuzilmasi endigina shakllanish bosqichida bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkichlar iqtisodiyotning raqamli ajrajmas qismiga aylandi. Markaziy bankning statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda muomaladagi bank kartalari soni taxminan 20,5 million donani tashkil etgan edi. 2021-yilga kelib, pandemiya ta'sirida masofaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoj ortishi natijasida bu ko'rsatkich 27,1 millionga yetdi. 2023-yil yakunlariga ko'ra esa, O'zbekiston moliya bozorida bank kartalari soni 46,5 milliondan oshib, aholining har bir mehnatga layoqatli a'zosiga o'rtacha 2 tadan ortiq karta to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda. Ushbu o'sish dinamikasi to'lov terminallari orqali tushumlarda ham o'z aksini topgan. 2020-yilda terminallar orqali tushumlar hajmi 48,4 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich qariyb 4 barobarga o'sib, 186,2 trillion so'mga yetdi.



Ushbu raqamlar shuni isbotlaydiki, aholida raqamli to'lov vositalariga nisbatan ishonch va ko'nikma shakllanib bo'ldi. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tranzaksiyalarning asosiy qismi hali ham an'anaviy P2P (kartadan kartaga o'tkazma) va chakana savdo to'lovlari bilan cheklanib qolmoqda. Markaziy bank raqamli valyutasining (CBDC) yo'qligi sababli, yirik ulgurji savdo va transchegaraviy operatsiyalarda hali ham yuqori komissiya xarajatlari saqlanib qolmoqda. Shu sababli, 1-rasmda ko'rsatilgan o'sish tendensiyasi raqamli so'mni joriy etish uchun fundamental texnologik baza mavjudligidan dalolat beradi.

Raqamli valyutalarning joriy etilishi Markaziy bankning pul-kredit siyosati instrumentlari samaradorligini tubdan oshiradi. An'anaviy tizimda foiz stavkalarining o'zgarishi real iqtisodiyotga 6 oydan 18 oygacha bo'lgan vaqt bilan ta'sir qilsa, "Raqamli so'm" sharoitida ushbu jarayon deyarli real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Blokcheyn texnologiyasining qo'llanilishi pul massasining harakatini har bir tranzaksiya darajasida kuzatish imkonini beradi. Bu esa nafaqat inflyatsiyani jilovlashda, balki byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalarga ajratiladigan subsidiyalarni rejalashtirilgan ko'rinishida berish, ularning faqat belgilangan maqsadlar uchun ishlatilishini kafolatlaydi.

Global moliya bozorida Markaziy bank raqamli valyutalarini (CBDC) joriy etish bo'yicha Xitoy Xalq Banki (e-CNY) va Nigeriya (eNaira) tajribalari O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim komparativ material taqdim etadi. Xitoy modeli shuni ko'rsatadiki, raqamli valyuta nafaqat to'lov vositasi, balki iqtisodiy ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishning kuchli qurolidir. e-CNY loyihasining ikki pog'onali distribyutsiyasi tijorat banklarining likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda, moliya tizimining raqobatbardoshligini oshirdi. O'zbekiston uchun ushbu tajribani qo'llashda aholining demografik tarkibi va smartfonlar bilan ta'minlanganlik darajasi (80% dan yuqori) inobatga olinishi lozim. Nigeriyaning "eNaira" loyihasida kuzatilgan kamchilik - aholi o'rtasida yetarli targ'ibotning yo'qligi va oflayn rejimdagi to'lovlar infratuzilmasining sustligi - O'zbekiston uchun "Raqamli so'm" strategiyasida asosiy dars bo'lishi kerak. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, raqamli valyuta "Internet of Things" (IoT) ekotizimi bilan integratsiya qilinishi, ya'ni aqlli qurilmalar orqali avtomatik to'lovlarni amalga

Raqamli moliya tizimiga o'tish jarayonida kiberxavfsizlik masalasi milliy iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas qismiga aylanadi. O'zbekiston Respublikasining 2022-yilda qabul qilingan "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonuni ushbu sohadagi huquqiy poydevor bo'lsa-da, "Raqamli so'm" uchun maxsus texnologik protokollar talab etiladi. Ushbu tahlillarga ko'ra, raqamli valyuta platformasi "Zero Trust Architecture" (Hech kimga ishonmaslik arxitekturasi) asosida qurilishi shart. Bunda har bir tranzaksiya ko'p bosqichli autentifikatsiyadan o'tadi va blokcheyn zanjirida qayd etiladi. Shuningdek, Markaziy bank va tijorat banklari o'rtasida kiber-ma'lumotlar almashinuvi markazi (SOC) tashkil etilishi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xakerlik hujumlarini real vaqt rejimida aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi. Institutsional darajada esa, bank disintermediatsiyasining oldini olish uchun raqamli hamyonlardagi mablag'lar miqdoriga foiz to'lanmasligi va ularning umumiy aylanmasiga chegara o'rnatilishi tavsiya etiladi.

O'tkazilgan kompleks tadqiqotlar va O'zbekiston moliya bozorining transformatsion dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli valyutalarni joriy etish milliy iqtisodiyot



uchun shunchaki texnologik yangilanish emas, balki global moliya arxitekturasida suverenitetni mustahkamlashning strategik zaruriyatidir. Tadqiqot davomida olingan natijalar asosida quyidagi fundamental xulosalar shakllantirildi: Birinchidan, "Raqamli so'm" loyihasining amalga oshirilishi milliy valyutaning monetar transmissiya mexanizmini tubdan takomillashtiradi. Ikkinchidan, blokcheyn texnologiyasiga asoslangan raqamli moliya tizimi "yashirin iqtisodiyot" ulushini (hozirda YAIMning qariyb 30-45 foizi) qisqartirishda eng samarali institutsional vosita bo'lib xizmat qiladi. Davlat xaridlari va subsidiyalarini "aqli shartnomalar" orqali amalga oshirish, har bir so'mning harakatini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. Bu esa korrupsion xavflarni minimallashtiradi va davlat byudjeti shaffofligini yangi bosqichga olib chiqadi. Uchinchidan, O'zbekiston uchun eng maqbul model sifatida tanlangan ikki pog'onali CBDC tizimi tijorat banklarining an'anaviy rolini saqlab qolgan holda, moliyaviy inklyuzivlikni oshiradi. Bu tizim chekka hududlardagi aholiga an'anaviy bank filiallarisiz zamonaviy moliya xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi va mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni yumshatishning muhim omiliga aylanadi.

Bugungi global geosiyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar davrida pul nafaqat ayirboshlash vositasi, balki davlatning texnologik qudrati belgisiga aylanmoqda. O'zbekistonning «Raqamli so'm»ni joriy etish strategiyasi naqd pullarni raqamli aktivlar shakliga o'tkazish bilangina cheklanmaydi - bu milliy moliya-kredit tizimining institutsional arxitekturasini tubdan transformatsiya qilish, iqtisodiyotni to'rtinchi sanoat inqilobi talablariga muvofiq raqamli konvergensiya jarayonlariga adaptatsiya qilish hamda kelajakning yuqori texnologiyali (Fintech) moliya ekotizimida strategik ustuvorlikni ta'minlash sari qo'yilgan dadil qadamdir. Raqamli valyuta - O'zbekiston iqtisodiyoti uchun shunchaki uzoq kelajak emas, bu bugun amalga oshirilishi shart bo'lgan yangi iqtisodiy sivilizatsiya ostonasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev, X. (2022). Markaziy Osiyo iqtisodiy aloqalari. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti. <https://natlib.uz>
2. Eichengreen, B. (2021). The Future of Money: From Bitcoins to Central Bank Digital Currencies. Oxford University Press. <https://global.oup.com/academic/product/the-future-of-money-9780197579325>
3. Prasad, E. S. (2021). The Future of Money: How the Digital Revolution Is Transforming Currencies and Finance. Harvard University Press. <https://www.hup.harvard.edu/books/9780674258446>
4. Nakamoto, S. (2008). Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. <https://bitcoin.org/bitcoin.pdf>
5. Asian Development Bank (ADB). (2023). Central Asia Regional Economic Outlook. Manila: ADB. <https://www.adb.org/publications/central-asia-regional-economic-outlook>
6. International Monetary Fund (IMF). (2023). Central Bank Digital Currency: Strategy and Design. Washington: IMF. <https://www.imf.org/en/Publications/fintech-notes/Issues/2023/11/19/central-bank-digital-currency-strategy-design>



7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). PF-6079-son Farmon. "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasi." <https://lex.uz/docs/5031048>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022).PF-121-son Farmon. "Kripto-aktivlar aylanmasi sohasida boshqaruvni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida." <https://lex.uz/docs/5848755>

9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). To'lov tizimlarining rivojlanishi bo'yicha yillik hisobot. <https://cbu.uz/uz/publications/reports>